

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.X.Raxmatova	
Naqshbandiya ta'limotida murosa falsafasiga munosabatning o'ziga xos xususiyatlari	98
X.A.Yulbarsova	
Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari	102
A.B.G'ulomov	
Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning falsafiy jihatlari	107
B.Raxmanov	
Ibn Sinoning nochiziqli tafakkur asosidagi falsafiy qarashlarida sinergetik tamoyillar	110
N.A.Imomova	
Mehnat migratsiyasi vujudga kelishining ijtimoiy omillar va shart-sharoitlari	117
L.R.Usmonova	
Falsafiy komparativistika qadimgi dunyo madaniy muloqoti muammolari kontekstida	122
B.S.Ganiyev, U.S.Maksumova	
O'zbekistonda tadbirdorlik madaniyati dinamikasining ijtimoiy-falsafiy jihatlari	128
A.Tashanov	
Zigmund Freyd va Erix Fromm falsafasida inson destruksiyasining ayrim talqinlari	135
A.A.Qambarov	
Ma'rifatli avlodni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy tahlili	140
D.X.Gafforova, I.I.Rizayev	
O'rta asrlar O'zbekiston maqbaralarida tug'larning islom va tangrichilikdagi muqaddas timsoliy vazifalari	144
J.J.Shodiyev	
Insonlarni qadrlash va uni ma'naviy-axloqiy jihatdan qo'llab-quvatlashda din va falsafaning o'rni	150
D.O.G'afurov	
O'zbek milliy nikoh marosimlarining transformatsion xususiyatlari va uning ma'naviy qiyoysi	155

SIYOSAT

R.B.Mirzabayev	
Yangi O'zbekistonda davlat xizmati sohasi takomillashuvi jarayonlari	159
R.A.Ikramov	
Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda huquqiy ta'lim-tarbiya va ommaviy axborot vositalarning o'rni	168
D.Sh.Maxkamov	
Nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o'rni va ahamiyati	173
M.M.Safarov	
Yangi O'zbekiston yoshlari siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini futurologik istiqbollari	177

ТАРИХ

A.Sharafiddinov	
Farg'ona viloyatining Andijon uyezdida paxtachilik va paxta sanoatining shakllanishi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)	185
M.F.Rasulov	
O'zbekiston minoralari haqida ayrim mulohazalar (qadimgi va o'rta asrlar davri)	190
M.H.Isamiddinov, M.H.Hasanov, N.Qambarov	
2022-yili Quva arkida olib borilgan arxeologik qazishma ishlari	196
F.E.Atajanova	
Xorazmda xalq maorifi tizimi rivojlanishi: muammolar, vazifalar va natijalar	200
B.T.Mirzaqulov	
Mang'itlar sulolasi davrida Buxoro amirligida davlat boshqaruvi	204

TARIX

UDK: 94(571.1):631.463(571.1);631.46(571.1);94(571.1)"18/20" DOI: [10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a35](https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a35)

**FARG'ONA VILOYATINING ANDIJON UYEZDIDA PAXTACHILIK VA PAXTA
SANOATINING SHAKLLANISHI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)**

**СТАНОВЛЕНИЕ ХЛОПКОВОДСТВА И ХЛОПКОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В
АНДИЖАНСКОМ УЕЗДЕ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ (КОНЕЦ XIX - НАЧАЛО XX ВЕКА)**

**FORMATION OF COTTON GROWING AND COTTON INDUSTRY IN ANDIJAN UEZD OF
FERGANA REGION (END OF THE 19TH CENTURY - BEGINNING OF THE 20TH CENTURY)**

Abdugaffar Sharafiddinov¹

¹Abdugaffar Sharafiddinov

– Farg'ona davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi.

Annotatsiya

Maqolada arxiv xujjalari, mavjud adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida Farg'ona viloyatining Andijon uyezdida paxtachilikning rivojlanishi va uning oqibatida paxta tozalash, yog'-moy korxonalarining paydo bo'lishi, ularning holati, texnik jihozlanishi, ishlab chiqarish hajmi, ischchilarning ahvoli, ularga to'lanadigan mehnat haqi va boshqalar tahlil qilingan.

Аннотация

В статье описано развитие хлопководства в Андижанском уезде Ферганской области в период правления Российской империи и возникновения хлопкоочистительных и маслобойных предприятий, их состояние, техническая оснащенность, объемы производства, положение рабочих, выплачиваемая им заработка плата, и т. д. проанализировано.

Abstract

In the article, on the basis of archival documents, information from existing literature, the development of cotton cultivation in Andijan uezd of Fergana region during the rule of the Russian Empire and the emergence of cotton ginning and oil enterprises, their condition, technical equipment, volume of production, the condition of workers, wages paid to them, etc. analyzed.

Kalit so'zlar: Amerika navi, uyezd, desyatina, zavod, temir-yo'l, pud, kustar, firma, stansiya, vagon-sisterna.

Ключевые слова: Американский сорт, уезд, десятина, завод, железная дорога, пуд, кустар, фирма, станция, вагон-цистерна.

Key words: American variety, uyezd, desyatina, factory, railway, pud, kustar, firm, station, tank car.

KIRISH

Rossiya burjuaziysi tobora o'sib kelayotgan Rossiya to'qimachilik sanoati talablarini qondirish maqsadida XIX asrning 80-yillardan boshlab O'rta Osiyoda, jumladan, Farg'ona viloyatida paxtachilikni rivojlantirish choralarini ko'ra boshladi. Shu maqsadda paxtaning yangi Amerika navi yetishtirila boshlandi. Agar 1889-yilda viloyat bo'yicha 18514 desyatina maydonga ana shu nav paxta ekilgan bo'lsa, 1895-yilga kelib bu maydon 88758 desyatina yetkaziladi.[1.21]

NATIJA VA MUHOKAMA

Andijon uyezdida ham paxtaning Amerika navi ekilgan maydonlari ortib bordi. Chunonchi, uyezzda 1890-yili yangi Amerika navi ekilgan paxta maydonlar 7239 desyatini, mahalliy nav paxta maydonlari 1315 desyatini tashkil etgan bo'lsa, [9.14,15] 1896-yili 47150 desyatina maydonga Amerika navi, [10.17b.,18] 667 desyatina mahalliy nav paxta ekildi. [14.3]

Qadim davrlardan buyon o'lkada paxtani chigitidan ajratish qo'l dastgohi – chig'iriq orqali amalga oshirilgan. Bu ishni bajarish uchun juda ko'p vaqt va mashaqqatli mehnat sarflanib, 1 pud paxtani tozalash, chig'iriqdan o'tkazish uchun 2 kun vaqt sarflangan. Shu bilan birga tola chang va ezelgan chigit bilan ifloslanib, sifati yomonlashardi. Shuningdek, paxtani chig'iriqda tozalash qimmatga tushardi va mehnat unumдорлиги past edi. Chig'iriqda minglab kishilar, ko'proq xotin-qizlar va bolalar ishlab, mahalliy, kustar sanoat ehtiyojlarini qondirib ichki va tashqi bozor uchun turli gazlamalar tayyorlangan.

Shunday qilib, paxtachilikning rivojlanishi va metropoliya to'qimachilik fabrikalari uchun paxta-xomashyosini ko'payishi, paxtani chigitdan tozalash sohasida katta o'zgarishlarga olib kelib, chig'iriqning paxta tozalashdagi ahamiyati yo'qolib bordi va paxtani tozalash sanoat yo'li bilan amalga oshiriladigan bo'ldi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Andijon uyezdi Farg'ona viloyatida eng ko'p paxta yetishtiradigan rayon hisoblangan. Paxta maydonlarining Andijon uyezdida markazlashganligi shahar va uyezd paxta tozalash sanoatining taraqqiy etishiga olib keldi.

Ta'kidlash lozimki, o'rganilayotgan davrda butun Farg'ona viloyatida paxta ekiladigan maydonlarning miqdori yildan-yilga ortib borgan. Masalan, agar 1888-yilda viloyatda payxta maydonlari 34000 desyatini tashkil etgan bo'lsa, 1912-yilga kelib, bu ko'satkich 336525 desyatina ortgan. [2.96] Demak, Farg'ona viloyatida paxtachilik 25 yil ichida 10 martaga ortgan.

XX asr boshlarida Andijon uyezdida paxta ekiladigan maydonlarning yildan-yilga ortib borishini quyidagi jadval ma'lumotlaridan bilishimiz mumkin. [16.8]

Yillar	Paxta maydonlari (desyatina)	Yillar	Paxta maydonlari (desyatina)
1908	58955	1912	97826
1909	58871	1913	99836
1910	70844	1914	94342
1911	80101	1915	101919

Ma'lumotlarni o'rganish shuni ko'rsatadi, viloyatning Andijon va Marg'ilon uyezdlarida paxta yetishtirish birinchi jahon urushi arafasida o'zining yuqori cho'qqisiga chiqqan va ushbu uyezdlar Farg'ona viloyatida yetishtiradigan paxta hosisining 50-60% ni yetishtirib bergen.

Shunday qilib, Podsho Rossiysi Qo'qon xonligini tugatib, o'rnda Farg'ona viloyatini tashkil etgandan so'ng, to'qimachilik sanoatini Amerikadan olib kelinadigan paxtadan ozod qilish maqsadida paxtachilikni rivojlantirish uchun qator chora-tadbirlarni qo'lladi va bunga erishdi.

Bu masalada Andijon uyezdi salmoqli o'rinni egalladi.

Andijonda dastlabki paxta tozalovchi zavod 1880-yilda qurilib, u Olimjonxo'ja Muhammadjonovga qarashli edi. Zavodda 38 ishchi ishlardi.[3.74-75] Agar 1887-yilda Andijon uyezdida bitta paxta tozalovchi va preslovchi zavod bo'lib, unda 11 ishchi ishlab, yillik ishlab chiqarish mahsuloti 7000 so'mni tashkil etgan bo'lsa, [18 vedemost 2] 1888-yilga kelib ularning soni 3 taga yetdi. Ularda ishlovchi ishchilarning jami 71 kishini, yillik ishlab chiqarish mahsuloti esa 536000 so'mni tashkil etgan. [19.vedomost 2]

Butun o'lkada bo'lgani kabi, Andijon shahrida ham sanoatda ishlab chiqarish hajmi va ishchilarning miqdori jihatidan paxta tozalovchi zavodlar oldingi o'rinda turardi. Chunki Rossiya to'qimachilik sanoatining xom ashyoga bo'lgan talabining yildan-yilga kuchayib borishi o'lkada yana ko'plab paxta tozalovchi zavodlarning qurilishiga olib keldi.

1892-yili Andijon shahrida 6 ta yirik paxta tozalovchi zavodlar bor edi. Shulardan biri Yunatan Fayzi Mushiyevga qarashli paxta tozalash zavodida 17 ishchi ishlagan va bir sezonda 1600 pud paxta tozalangan.

Olimjonxo'ja Muhammadjonov zavodi sezonda 84787 pud (30 ishchi), Hodixo'ja Sodiq Hojinovga qarashli 2 ta zavod 16000 pud (72 ishchi), V.V.Tomich zavodi 206000 pud (98 ishchi), Olimjonxo'ja Karimoxun Sobirov zavodi 92000 pud (39 ishchi) paxta tozalagan.

Zavodlarda ishlayotgan ishchilarning deyarli ko'pchiligini mahalliy millat vakillari tashkil etardi. Shaharda zavod va fabrikalarning tashkil topishi bu yerdagi mayda hunarmandchilik korxonalarining sinishiga olib keldi. Oqibatda hunarmandlar va ayrim dehqonlar zavodlarga kelib ishlay boshladи. 1899-yilga kelib Andijon shahri va uyezdidagi 18 paxta tozalovchi zavodlarda 900 nafardan ortiq ishchi ishlamoqda edi. [11.30-36]

ADABIYOTLAR TAHЛИLI

XIX asrning so'nggi yillariga kelib Turkiston o'lkasining qator shaharlari, va jumladan, Andijon shahri ham Markaziy Rossiya bilan temir yo'l orqali bog'lanadi. Bu esa o'lka ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy etishida, kapitalistik munosabatlarning tashkil topishi va rivojlanishida asosiy vosita bo'lib xizmat qildi.

1900-yilga kelib, uyezdda 19 ta paxta tozalovchi zavod bo'lib, ular yiliga 640000 so'mlik paxtani qayta ishlagan. Bu zavodlarda jami bo'lib 1200 ishchi ishlagan, 1906-yilda esa, zavodlarning soni 32 taga yetdi.

TARIX

Shuni ta'kidlash lozimki, paxta tozalash zavodlarining joylashish jihatidan Andijon shahri uyezdga nisbatan oldingi o'rinda turgan. Chunonchi, 1899-yili uyezddagi mavjud 18 ta paxta tozalovchi zavodlardan 14 tasi shaharda, qolgan 4 tasi esa uyezdda joylashgandi. [4.162]

1910– yilga kelib esa uyezddagi 36 ta paxta tozalovchi zavodlardan 24 tasi shaharda, 12 tasi uyezdda, 1914–yilda esa 44 zavoddan 26 tasi shaharda, 18 tasi uyezdda joylashgandi. Shu bilan birga, Andijon shahri Oktabr to'ntarilishiga qadar faqatgina paxta tozalovchi zavodlarning soni jihatidangina uyezdga nisbatan oldinga safda bo'lmay, balki ularning yillik ishlab chiqargan mahsuloti jihatdan ham oldingi o'rinda bo'lgan. Chunonchi, shaharning 2-qismida joylashgan 7 ta paxta tozalash zavodining o'zigina 1906 yilda 3600000 so'mlik paxtani qayta ishlagan.

Yoki 1913-1914-yillarda uyezdda har bir zavod o'rtacha – 130710 pud, minimum – 50000, maksimum – 207000 pud; shaharda o'rtacha – 289733, minimum – 27000, maksimum – 1050000 pud paxtani qayta ishlagan. Andijon paxta tozalovchi zavodlari viloyat shaharlari paxta tozalash zavodlariga nisbatan ham mehnat unumdorligi jihatidan ancha ustun bo'lgan. Chunonchi, Andijondagi 26 paxta tozalovchi zavod 7533053 pud paxtani qayta ishlagan, yoki o'rtacha har bir zavodga bu raqam 289733 puddan to'g'ri kelgan bo'lsa, Namangandagi 17 zavod 4114949 pud, o'rtacha har bir zavod 235174 puddan paxtani qayta ishlagan. [4.162-163] Demak, Andijon paxta tozalash zavodlari faqatgina viloyatda emas, balki butun o'lkada mehnat unumdorligi jihatidan ancha ustun bo'lgan.

Shahar sanoatida paxta tozalash zavodlaridan keyin yog' zavodlari turgan. Viloyatda shu jumladan uyezdda paxta yetishtirishning tobora o'sib borishi 1901-1905-yillardan boshlab ko'plab yog' zavodlarining qurilishiga olib keldi.

1901-yil Moskvalik savdogar Konstantin Solovyev Chust shahrida o'ziga qarashli paxta tozalovchi zavodda chigitdan yog' ishlab chiqarish uchun maxsus mashinalar o'rnatdi. Bungacha butun o'lkadagi singari Andijonda ham yog' ishlab chiqarish ot bilan harakatga keltiruvchi kichik kustar xarakterda bo'lgan korxonalarida amalga oshiriladi. Faqat XX-asr boshlariga kelib yog' ishlab chiqarish sanoatning yirik tarmog'iya aylanib bordi.

Andijonda 1907-yil "K.M.Solovyev K°" firmasi tomonidan o'lkada yirik; eng yangi texnika vositalari bilan jihozlangan paxta tozalovchi va yog' ishlab chiqaruvchi zavod qurildi. Zavod Andijon stansiyasi bilan bog'langan hamda ishlab chiqarilgan yog'ni uzoq masofalarga eltish uchun 150 ta shaxsiy vagon-sisternalariga ega bo'lgan. [5.155]

Shu yili shaharning Tilla-xo'ja kvartalida "Farg'ona shirkati" firmasi tomonidan ikkinchi yog' zavodi qurildi. [6.155] Quyida (jadval 1) yog' zavodlarining ishlab chiqargan mahsuloti, ishchilar, mexanizmlar soni bilan tanishish mumkin. [20.62; 21.106]

Shunday qilib, yog' zavodlari yildan-yilga kengayib, kattalashib bordi. Agar 1909 yilda har ikkala yog' zavodida ishchilar soni 185 nafarni tashkil etib, ishlab chiqargan mahsulot 1300 ming so'mga yetgan bo'lsa, 1910 yilga kelib, ularning umumiy oboroti 5 ml.so'mga yetdi. [17.450] 1913 yilga kelib uyezdda yog' zavodlari soni 4 taga yetdi. Ular jami 382 ishchi ishlab,yillik ishlab chiqargan mahsuloti 16809200 so'mni tashkil etdi. [22.Prilojeniye №10]

"K.M.Solovyev K°" firmasiga qarashli paxta tozalovchi va yog' zavodi Andijonda texnika va jihozlanish jihatidan boshqalarga nisbatan durust hisoblangan. Paxta zavodida 8 djin. mashinasi ishlab, bir sutkada 5600 pud paxtani qayta ishlagan, hamda 10 ta yog' ishlab chiqaruvchi mashina sutkasiga 1800 pudgacha yog' ishlab chiqargan. Zavod to'la elektr energiyasi bilan yoritilgan. Buning uchun zavod qoshida 360 amper quvvatga ega bo'lgan (slesarlik, stolyar, tokarlik, temirchilik va degrezlik) ustaxonalar bo'lib, barcha remont ishlari zavodning o'zida bajarilgan.

1-jadval

Yillar	Zavodlar soni	Preslar soni	Ishchilar soni	Bir kunlik qayta ishlagan chigit (pud hisobida)	Sezon davomida qayta ishlangan chigit (ming pud hisobida)	Olingan mahsulot (ming pud)			
						yog'	momiq	kunjara	sheluxa
1907	2	8	125	7000	1820	240	14	66	903
1908	2	12	150	11000	2050	290	16	716	1025

1908-yil K.M.Solovyev tomonidan shaharda par bilan ishlaydigan dastlabki sovun zavodi qurildi. Bu zavod bir sutkada 600 pudgacha sovun tayyorlash qvvatiga ega bo'ladi. [5.321]

1914-yilda shaharda paxta tozalovchi zavodlar bilan birgalikda 62 ta turli xildagi sanoat korxonalari bo'lib, ishlab chiqqagan mahsuloti 36169695 so'mni tashkil etgan va jami ularda 2435 ishchi ishlagan. Viloyatda Andijondan keyin ikkinchi o'rinni Qo'qon shahri egallab, unda 49 turli zavodlar bo'lgan, yillik ishlab chiqqagan mahsuloti esa 19285232 so'mni tashkil etib, 2487 ishchi ishlagan. [7.107] Lekin, Andijon sanoat jihatidan birinchi o'rinni egallagan bo'lishiga qaramasdan, butun o'lkada bo'lgani singari shaharda sanoat taraqqiyoti texnik jihatdan qoloq va mustamlaka xarakterga ega bo'lgan.

Fabrika, zavod va boshqa korxonalarining hammasi deyarli yarim kustar xarakterga ega bo'lib, bu zavodlar arzon ishchi kuchi yordami bilan Markaziy Rossiya sanoati uchun xom ashyo tayyorlash maqsadida qurilgandi. Bu umumiy mustamlaka mamlakatlariga xos bo'lgan taraqqiyot ko'rinishi edi. Chunki chekka o'lkalarda markazlashgan sanoatning vujudga kelishi va ishchilar sinfini yirik ishlab chiqaruvchi korxonalarga uyushuvi podsho hukumatining manfaatlariga butunlay zid edi.

Sanoatdagi ishchilarning yashash va ishlash sharoiti juda yomon, ish vaqt uzoq, ish haqi juda oz edi. Chunonchi, Andijon paxta tozalash zavodlarida ish vaqt 10-14 soat bo'lib, ish haqi esa oyiga 12-15 so'mni tashkil etardi xolos. [13.29-30]

Andijon paxta tozalash zavodining sobiq ishchisi I.Nasriddinov o'z xotiralarida shunday eslaydi: men Mirkomilboyning paxta zavodida qora ishchi bo'lib ishlar edim. Zavodda ishchilar ahvoli juda og'ir edi. Bir kunlik ish vaqt 16 soat bo'lib, bir oylik ish haqi 5-6 so'mdan oshmas edi. Men qora ishchi bo'lganim uchun oyiga 3 so'mga yetkazib ish haqi olar edim. Boy ishchilarning mehnat sharoitini yaxshilash haqida hech qanday g'amxo'rlik qilmas edi. Zavoddagi bu og'ir sharoit ishchilar o'rtasida tez-tez norozilik tug'dirib turardi. [8.148]

Zavodlarda texnika xavfsizligi va ishchilar sog'ligini saqlashga hech qanday e'tibor berilmagan. Shu sababli ish jarayonida baxtsiz hodisalar tez-tez ro'y berib turgan. Shu boisdan ham o'lkada chiqadigan "Turkestanskiye vedomosti" gazetasi bu haqda shunday deb yozgandi: "g'amginlik bilan ma'lum qilamizki, bizning (Andijondagi – Sh.A.) paxta tozalash zavodlarimizda baxtsiz hodisalar soni kamayish o'rniga balki nihoyatda ortib bormoqda".

XULOSA

Shunday qilib, paxtachilikning rivojlanishi va u bilan bog'liq paxta tozalash sanoatining shakllanishi asosida ekanomikada, qishloq xo'jalik texnikasida, sotsial munoabatlarda ba'zi o'zgarishlar yuz berdi. Tovar-pul munosabatlari xo'jalikning hamma sohalariga kirib bordi va qishloq xo'jaligida kapitalistik munosabatlar paydo bo'la boshladi. Bu esa, o'z navbatida sinfiy kurashni keskinlashtirdi. Biroq paxtachilik izchil va keng ravishda rivojlanmadidi. Bunda chorizmning mustamlakachilik siyosati va milliy zulm sabab bo'ldi. Qishloq xo'jaligida hamon feodal munosabatlar hukmronlik qilar edi. Paxta rus kapitalistlari va mahalliy boy quloqlarga katta boylik keltirgan bo'lsa, paxtakor dehqonning iqtisodiy ahvolini tobora og'irlashtirdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Тўлаганова М.А. Роль Ферганской области в торговых связах России со Средней Азией (вторая половина XIX-нач.XXв.) – Автореферат канд. ист. наук. – Ташкент, 1972.

TARIX

2. Русский хлопок. Русское хлопководство в прошлом и пути к его возрождению в СССР. Москва,, Гл. Хлоп.ком., 1923.
3. Мелик-Саркисян С.А. Урочище Бус Ферганской области. К вопросу о положении хлопкового дела в Ферганской области и меры к его упорядочению, СПБ., 1889.
4. Демидов А.П. Экономический очерк хлопководства, хлопкоторговли и хлопковой промышленности Туркестана. Москва, 1922.
5. Путеводитель по Туркестану и железным дорогам Средне-Азиатской и Ташкентской. СПб., 1912.
6. Конопко С.Р. Туркестанский край, II издания.-Ташкент, 1912.
7. Заорская В.В. и Александр К.А. Промышленные заведения Туркестанского края. –Петербург, 1915.
8. Воспоминания участников гражданской войны в Андижанской области. Вып.Ш, АГПИ, Андижан, 1957.
9. ЎзР МДА, 19-фонд, 1-рўйхат, 24149-иш.
10. ЎзР МДА, 1-фонд, 11-рўйхат, 1460-иш.
11. ЎзР МДА, 19-фонд, 1-рўйхат, 24350-иш.
12. ЎзР МДА, 1-фонд, 14-рўйхат, 1620-иш.
13. ЎзР МДА, 19-фонд, 1-рўйхат, 24243-иш.
14. РФ СПб. МДТА., 398-фонд, 69-рўйхат, 23319-иш.
15. РФ СПб. МДТА., 1425-фонд, 56-рўйхат, 712-иш.
16. РФ СПб. МДТА., 1425-фонд, 1-рўйхат, 505-иш.
17. РФ СПб. МДТА., 763-фонд, 25-рўйхат, 1322-иш.
18. Обзор Ферганской области за 1887 г. –Новый Маргелан, 1889.
19. Обзор Ферганской области за 1888 г. –Новый Маргелан, 1890.
20. Статистический обзор Ферганской области за 1907 г.-Скобелев, 1909.
21. Статистической обзор Ферганской области за 1908 г. – Скобелев, 1920.
22. Статистической обзор Ферганской области за 1913 г. – Скобелев, 1916